

**SOVET YILLARIDA O‘ZBEKISTON SANOATIDA KADRLAR MASALASI:
YO‘NALISH VA MUAMMOLAR**

Raxmatulloyev Umid

BuxDu Tarix-(yo‘nalishlar va faoliyat turi bo‘yicha)
mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

O‘zbekiston tarixida o‘tgan XX asr juda bahsli, ziddiyatli, qarama – qarshiliklarga boy davr bo‘ldi. Ushbu davrda iqtisodiy va siyosiy jihatdan ko‘plab yangiliklar va burilishlar davri bo‘ldi. Aynan XX asrning boshlarida Podsho Rossiyasining tugatilishi va 1922-yilning 30-martida dunyo tarixiga SSSR nomi ittifoq davlatining paydo bo‘lishi O‘rta Osiyo hududlariga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Rossiya imperiyasi tarkibida bo‘lgan Turkiston hududida ittifoq davlati tuzilgach hududiy chegaralanishlar o‘tkazildi. 1924-yilning 13-17 fevralida Buxoroda Butuno‘zbek sovetlarining I ta‘sis majlisi bo‘lib o‘tdi. Mazkur syezdda O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasini tashkil etish to‘g‘risidagi deklaratsiya qabul qilindi va Fayzulla Xo‘jayev boshchiligidagi yangi hukumat tuzildi. Shu yilning 27-oktabrida ittifoq tarkibidagi O‘zbekiston SSR tuzildi. Aynan mazkur davrdagi iqtisodiy siyosatni tahlil qilish, sanoat tarmoqlarini kadrlar bilan taminlashdagi muammo va yutuqlarni o‘rganish muhim va dolzarb hisoblanadi.

Sovet davlati tuzilgach ittifoqi rahbariyati rivojlanishning sotsialistik industrlashtirish yo‘lini tanladi va sotsialistik industrlashish jarayonlarini boshlab yubordi. Mazkur maqsadlar qabul qilingach yangilanayotgan barcha sanoat tarmoqlarini malakali ishchi kadrlar bilan ta‘minlash muammosi kun tartibiga chiqdi. Kadrlar muammo ayniqsa O‘zbekistonning barcha sanoat tarmoqlarida o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Respublikada 30-yillardan boshlangan keng ko‘lamli industrlashtirish jarayonlari mahalliy yerli aholidan mavjud voqealarga moslashishni talab etardi. Yangi ish boshlayotgan sanoat korxonalarini sifatli va malakali ishchi kadrlar bilan ta‘minlashga quyidagi sabablar xalal berdi: Birinchidan, yangi korxonalarining rahbariy lavozimlariga rus millatiga mansub kadrlarning qo‘yilishi; ikkinchidan, mahalliy yerli aholi yetarli darajada savodli emasligi bo‘lsa, uchinchi sabab, korxonalaridagi barcha texnologik va ish jarayonlarining to‘liq rus tilida ekanligi edi. Aynan yuqoridagi

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 02. Issue 05. May 2025

muammolar to‘g‘risida O‘zbekiston kompartiyasining 1927-yildagi III qurultoyida Akmal Ikromov nutq so‘zlaydi. Ushbu ma‘ruzada respublika ishlab chiqarish tarmoqlaridagi mahalliy yerli ishchilar 1926-yildagi 38,4 foizdan, 1927-yilda 37,4 foizga kamayganligi aytib o‘tadi. Respublika sanoat sohasida bunday salbiy tendensiyalar O‘zbekistonda mahalliyashtirish jarayonlarining sekinlashuviga sabab bo‘ldi. Sovet hukumati ma‘murlari uchun mahalliy aholi orasidan chiqqan kadrlarning katta qismi yuqori boshqaruv organlarida katta foizlarni egallashi ularning mahalliy xalqning manfaatiga teskari edi. Ammo, keyinchalik bu siyosat o‘zini oqlamagach hukumat biroz yon berishga majbur bo‘ladi.

Sovet ittifoqi tomonidan 1928-1932-yillarni o‘z ichiga olgan rivojlanishning birinchi besh yillik rejasiga ko‘ra O‘zbekistonda sanoat tarmoqlaridagi ishchilar sonini 22,9 mingdan 62,2 ming kishiga yetkazish, shulardan mahalliy yerli ishchilar sonini 10,8 mingdan qariyb 40 ming kishiga yetkazish vazifalari qo‘yildi. Ishchi va xizmatchilarni tayyorlash davomida ularni har tomonlama malaka va tajribali qilish maqsadlari ko‘zlandi. Belgilangan rejalarga muvofiq mahalliy yerli aholi vakillaridan 36,4 ming kishini maxsus ta‘lim maktablarida o‘qitish va bilim berish vazifalari qo‘yilganligi sanoat tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan mahalliy ishchi kadrlarni malakali qilishga qaratilgan ijobiy voqea bo‘ldi.

O‘zbekiston SSR sanoatida 1970-1985-yillar voqealariga qaralsa, mazkur yillarda respublika xalq xo‘jaligida band bo‘lgan ishchi kadrlarning tarkibida maxsus ma‘lumotli bo‘lgan kadrlar soni 531 mingdan 1381 ming kishiga, shulardan oliy ma‘lumotli mutaxassis kadrlar 252,5 mingdan 669,2 mingga, o‘rta maxsus ma‘lumotli kadrlar esa 278,6 mingdan 715,8 mingga ko‘payganligi respublika sanoat tarmoqlarini malakali ishchi kadrlar bilan ta‘minlashdagi ijobiy voqealardan biri bo‘ldi.

Respublikaning ishlab chiqarish tarmoqlarida ishchi kadrlar sonining ancha ijobiy sur‘atlarda o‘sgan bo‘lsada, bu o‘shish bo‘yicha O‘zbekiston sovet respublikalari ichida 13-o‘rinda turar edi. E‘tiborli tomoni shunda ediki, O‘zbekiston ishchi kadrlar safining milliy salmog‘i jihatidan ancha orqada edi. Bu tendensiya afsuski butun ittifoq davrida saqlanib qoldi. Bundan tashqari respublika viloyatlaridagi sanoat korxonalarida ham vaziyat turlicha bo‘lgan. Masalan, Farg‘ona vodiysidagi korxonalarda mahalliy o‘zbek ishchilari salmog‘i 40-60 foizni tashkil qilgan, Toshkent viloyatida esa bu ko‘rsatkich 20-23 foiz bo‘lgan bo‘lsa, Andijon mexanika zavodida o‘zbek ishchilari 51 foizni tashkil etgan.

Sovet yillarida olib borilgan industrilashtirish siyosatida sanoat tarmoqlarini sifatli kadrlar bilan ta'minlash darajasi doim ijobiy bo'lmagan. Birgina O'zbekiston misolida yuqoridagi ijobiy va salbiy jihatlarni ko'rish mumkin. Nima bo'lganda ham ushbu industrilashish jarayonlari mahalliy yerli xalqning sanoat sohasidagi bilim va malakalarining oshib borishiga yordam berdi, o'zbek xalqi bunday murakkab ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklarni o'z mehnati va matonati bilan yengib o'tdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Тарихи (1917-1991-йиллар). Биринчи китоб (1917-1939 йиллар). Тошкент . О'zbekiston. 2019. В. 309.
2. SHamsutdinov R, Karimov SH. Vatan tarixi. 2-kitob. Toshkent. 2010. В. 262.
3. Ўзбекистон ССР Тарихи. III том. Тошкент. Фан. 1971. В. 494
4. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1987 году. С. 209.
5. Бобожонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар (70-80 йиллар мисолида). Т. SHARQ. 1999. В. 144.

**Research Science and
Innovation House**